

**Toshkent international universiteti talabasi Shirinova Gulhida  
muallifligidagi “Gül Türkçesi” nomli o‘quv qo‘llanmasiga**

**TAQRIZ**


Bugungi kunda yoshlarni barkamol avlod qilib tarbiyalash, ta’lim-tarbiya ishlarining mazmunini yangilash, o‘rta va oliy o‘quv yurtlarining moddiy bazasini mustahkamlash, darslik va o‘quv qo‘llanmalarini talab etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20 apreldagi PQ-2909 – sonli “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi yangi avlod o‘quv adabiyotlarini yaratish, ularni amaliyatga keng tatbiq etish, OTMlarni zamonaviy o‘quv, o‘quv-metodik va ilmiy adabiyotlar bilan ta’minalash, xorijiy adabiyotlardan foydalanish, ularni tarjima qilish, ARMlar manbalarini doimiy yangilash masalasi o‘rtaga tashlangan.

Mazkur o‘quv qo‘llanma 1-bosqich talabalari va mustaqil o‘rganuvchilar uchun mo‘ljallangan. Ushbu o‘quv qo‘llanmaning o‘ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, unda har bir o‘quv mashg‘uloti uchun belgilangan mavzular reja asosida yoritilgan. Har bir dars uchun mustaqil ta’lim topshiriqlari ham berilgan. Mavzularning nazariy qismlari “soddadan murakkabga” tizimi asosida yoritilgan, mavzuni mustahkamlashga qaratilgan amaliy mashqlar ham shu asosida (A1) tizimli ishlab chiqilgan. Bu esa talabalarda fan bo‘yicha egallashi lozim bo‘lgan bilimlarni amaliy mashqlar yordamida yanada mustahkamlanishiga, bilimlarni notanish vaziyatlarda qo‘llash yuzasidan amaliy ko‘nikmani shakllanishida tizimli asos bo‘lib xizmat qiladi.

O‘quv qo‘llanmaning yana bir yutuqli jihatni shundaki, mualliflar sohaga oid amalga oshirilgan so‘nggi yutuqlar, jumladan ta’lim jarayoniga ilg‘or pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha amalga oshirilgan yutuqlardan qo‘llanilgan. Qo‘llanma har bir mavzu alohida jadvallarga solingan holda uch til (turk, rus va o‘zbek) doirasida ishlab chiqilgan. Grammatik qoidalar, qo‘sishimchalar ham jadvallarga solingan. Bu esa mavzuni oson va qulay tushunish imkonini beradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, G.Shirinova tomonidan tayyorlangan ushbu o‘quv qo‘llanma oliy o‘quv yurtlaridagi talabalar va mustaqil o‘rganuvchilarning turk tilida o‘qish va yozuv malakalarini shakllantirishda samarali natija beradi. Uni nashr etish va amaliyatga tabiq etishga tavsiya qilish mumkin.

TDSHU katta o‘qituvchisi, PhD



Nuriddin Altinboyev